

MISR VA O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI MADANIY-GUMANITAR
MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH DINAMIKASI

Fayziyev Jamshid Jahongir o'g'li

Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti Xalqaro munosabatlar

yo'nalishi 2-bosqich magistranti

jamshidfayziyev1208@gmail.com

93 554 34 12

Yovqochev Sh.A

Ilmiy rahbar: Siyosiy fanlar doktori, professor

Annotatsiya : Ushbu maqolada Misr va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy-gumanitar munosabatlar tadqiq etilib, ilmiy va diniy munosabatlarga alohida urg'u berilgani holda, shu sohadagi munosabatlarning rivojlanish bosqichlari, bugungi ahvoli hamda istiqbollari atroflicha o'rganib chiqilib, ilmiy va diniy munosabatlarga doir ma'lumotlar turli tahlil usullari yordamida tahlil etilib, ushbu sohalarida ikki mamlakatlar bugungi kunga qadar erishgan yutuqlar o'rganilib, bir qator kamchiliklar aniqlanib, ushbu kamchilikning yechilishiga doir yuzaga kelgan savollarga javob topilgan.

Kalit so'zlar: Madaniy-gumaitar, Al-azhar, hamkorlik, memorandum, Misr madaniyat markazi, elchixonalar faoliyati, diniy konfessiyalar, CAДУМ, Ziyovuddin Boboxonov, Ahmad at-toyyib, Muhammad Said Tantoviy, Usmonxon Alimov.

KIRISH

Misr va O'zbekiston hududiy jihatdan bir-biridan uzoq mintaqalarda joylashgan bo'lishiga qaramay, tarixiy-madaniy ildizlarga ko'ra yaqin hisoblanadilar. Umumiy din omili ham ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga munosib hissa qo'shayotgan muhim vositalardan biri sanaladi. Hozirgi kunda ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar kabi ulkan sohalarini qamrab oluvchi hamkorlik yo'nalishlari mavjuddir. Misr Arab Respublikasi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan olgan ilk arab davlati sanaladi. (1991-yil 26-dekabr). Ikki tomonlama munosabatlar 1992-yil yanvar oyida o'rnatilgan bo'lib, 1993-yil may oyida Toshkent shahrida Misr Arab Respublikasining elchixonasi o'z faoliyatini boshlagan. 1995-yil 9-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan Qohira shahrida O'zbekiston Respublikasining elchixonasi ochilgan⁸³. O'zbekistonning Misrdagi elchilari o'z faoliyati davomida siyosiy muloqotlarni rivojlantirish, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, madaniy diplomatiyani kuchaytirish va ta'lim sohasida hamkorlikni faollashtirish yo'lida salmoqli ishlarni amalga oshirishgan. Elchixonalar orqali elchilar darajasidagi muntazam muzokaralar o'tkazilib,

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.02.1995 yildagi 39-son. —URL: <https://lex.uz/docs/-1654670>

o'zaro qo'shma komissiyalar va ishchi guruhlar tashkil etilgan. Davlatlar o'rtasida turli sohalarga oid o'nlab hujjatlar — hukumatlararo bitimlar, anglashuv memorandumlari, qo'shma bayonotlar — imzolangan bo'lib, ular iqtisodiyot, fan-ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, transport va boshqa jabhalarda hamkorlikni kengaytirish va huquqiy asosda mustahkamlashga qaratilgan.

TADQIQOT USULLARI VA METODLARI

Ushbu maqolani yozish jarayonida turli tadqiqot usullari, jumladan, tarixiy, qiyosiy, tarixiy-qiyosiy, kontent analiz va statistik ma'lumotlardan foydalanish, institutsionalizm singari tahlil turlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA

Misr va O'zbekiston o'rtasidagi ko'pqirrali munosabatlar nafaqat mustaqillik davridan so'ng rivojlanib bordi, balki undan oldingi davrda ham rivojlanish bosqichlarini bosiqb o'tgan. Ikki davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, huquqiy munosabatlar davlat tashriflari davomida yoki boshqa institutsional tuzilmalar, parlamentlararo hamkorlik yo'nalishlari fonida olib borilgan va hozirgi kunda ham olib borilmoqda. Madaniy -gumanitar munosabatlar esa alohida tadqiq etilishi lozim bo'lgan sohalar sifatida qayt etilib ular bo'yicha tahlillarni ilmiy va diniy munosabatlarning rivojlanishi hamda borishini yoritish orqali tadqiq etishni lozim deb topdik.

Ilmiy munosabatlar. Misr va O'zbekiston ta'limiy yo'nalishlar bo'yicha ko'plab hamkorlik hamda yutuqlarga ega bo'lib, ushbu soha bo'yicha amalga oshirilgan ishlar o'tgan asrning 90-yillarining o'rtalariga qaytadi. 1995-yil may oyida Misr ta'lim vazirining Toshkentda rasmiy tashrifi davomida ikki davlat ta'lim vazirliklari o'rtasida ta'lim yonalishiga oid hamkorlik haqidagi shartnoma imzolangan. Aynan shu yili, ya'ni 1995-yil may oyida O'zbekiston Oliy ta'lim vazirligi hamda Al-Azhar Universitetidagi shartnoma ham imzolangan. Shuningdek, 1995-yil Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zMU) va Qohira Universiteti o'rtasidagi ilmiy va ta'limga doir bitim, 1995-yili turizm bo'yicha hamkorlik shartnomasi hamda 1996-yil iyun oyida qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolangan. Ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy, savdo-qitiodiy aloqalami rivojantirish uchun uchun qo'shgan hissalarini uchun Misrning O'zbekistondagi sobiq Favqulodda va muxtor elchisi doktor Mamduh Shavqiy 2000-yilning 22-yanvar kuni "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan⁸⁴.

1996-yil yanvar oyida Qohira Universiteti prorektori O'zbekistonga tashrifi davomida Misr madaniyat markazida maruzalar o'qigan hamda Buxoro va Samarqandda o'tgan O'zbekiston va Misr o'rtasidagi tarixiy aloqalar mavzusidagi seminarlar tahlil qilingan. Shuningdek, Misr Fondi O'zbekistonga Qohira Universitetining iqtisod siyosat fakultetining Osiyo tadqiqoti markazi ustozlari davlat va jamiyat qurish akademiyasiga delegat sifatida yuborgan. Shuningdek, 1993-yil noyabr oyida Misr Ta'lim vazirining O'zbekistonga tashrifi

⁸⁴ Ал-Бухари М. Гафуров С. Арабская Республика Египет. Учебное пособие (Под ред. акад. Н. Ибрагимова). – Т.: ТашГИВ, 2002. – С. 104.

davomida Toshkentda Misr madaniyat markazi ochilgan⁸⁵. Lekin keyinchalik, noma'lum yoki ommaga oshkor etilmagan sabablarga ko'ra ushbu markaz o'z faoliyatini to'xtatgan. Ba'zilarning buning bosh sababi etib ikki tomonlama munosabatlarning yomonlashuvini ko'rsatsa, boshqalar esa madaniyat markazida tahsil olgan o'quvchilarning ayrimlari eksterimistik guruhlar safiga qo'shib ketganligi bilan izohlaydi. 2024-yilning 15-oktabrida O'zbekistonning Misrdagi Favqulodda va muxtor elchisi Mansurbek Qilichev Al-Azhar majmuasi rahbari shayx Ahmad At-Toyyib bilan bo'lgan uchrashuvda ikki tomonlama munosabtlar, xususan, ilmiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar yuzasidan fikr almashdi. Suhbat davomida Ahmad At-Toyyib janoblari Al-Azhar universiteti O'zbekistonda arab tilini o'rgatishga qaratilgan markaz ochishga tayyor ekanligini bildirgan⁸⁶. Qanday sabab bo'lishidan qat'iy nazar, Misr madaniyat markazining yopilishi ikki tomonlama munosabatlarning rivojiga jiddiy futur yetkazib, tadqiqotchilarda ko'p lab savollar tug'dirgan. Markazning yopilish sabablari hanuzgacha mavhumligicha qolar ekan, uning yopilish sabablari soha mutaxassislari, olimlar oldidagi yechilmagan jumboqligicha qolmoqda.

2007-yilda aprel oyida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Misrga amalga oshirgan davlat tashrifi davomida 2007-2010 -yillarga mo'ljallangan madaniy hamkorlik to'g'risidagi hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi bilan Misr Iskandariya kutubxonasi o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi protokol imzolangan⁸⁷. Shu bilan bir qatorda ushbu tashrif davomida buyuk bobomiz, alloma Ahmad al Farg'oniyning Qohira shahridagi haykalining ochilishi ham bu "Nilometr" ixtirochisi hamda Misr-O'zbekiston rishtalarining uzviy namunasi o'laroq tarixga muhrlandi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti olimlari bilan hamkorlikda Misrda O'zbekistondagi me'moriy obidalar tarixi, ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Xiva va Qo'qon kabi tarixiy shaharlarimiz haqida salmoqli ilmiy tadqiqotlar nashr etildi va dissertasiyalar yoqlandi. Institut fondidagi ba'zi nodir qo'lyozmalarning hamkorlikdagi nashri va Alisher Navoiy hikmatlarining arab tiliga tarjimai kitobxonlarga taqdim etildi. Jumladan, Qohira universiteti professori Ahmad Rajab Rizq 2008-2011-yillarda Misrning Toshkentdagi elchixonasi madaniyat bo'yicha maslahatchisi, vakolatxona huzuridagi Madaniyat markazi mudiri lavozimida faoliyat yuritgan, 2017-yilda "Buxoro me'moriy obidalar va islom sivilizasiyasi" nomli kitob nashr etgan. 2018-yil uning Samarqand me'moriy obidalariga bag'ishlangan yangi kitobi chop etilgan. Hozirda Toshkent, Xiva, Termiz va Farg'ona to'g'risidagi kitoblarni nashrga tayyorlamoqda. U O'zbekiston

85 أ.د.محمد السيد سليم، د. إبراهيم عرفات، أ.د.نعمة الله إبراهيموف، د. صالح إنعاموف. أوزبكستان. الدولة والقائد. -ق، 1998. ص 118

86 15.10.2024. —URL: <https://www.youm7.com/story/2024/10/15/>

87 Xalq so'zi. -2007.- 19-apr

Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil avgustdagi farmoniga muvofiq "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan⁸⁸.

2023-yilning 20-21-fevral kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Misr Arab Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifi davomida O'zbekiston Islom sivilizatsiya markazi, Abu ayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston sharqshunoslik instituti hamda Misr milliy kutubxonasi va arxivi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandum ham imzolandi⁸⁹.

Hozirgi kunda Misrning yetakchi Oliy ta'lim muassalaridan Al-azhar, Qohira, Helvan, Iskandariya, Asyut Universitetlari O'zbekistonning Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda Xalqaro islomshunoslik akademiyalari bilan hamkorliklari yo'lga qo'yilgan⁹⁰. Solishtiradigan bo'lsa, agar 2008-yil Al-Azhardagi o'zbekistonlik talabalarning soni 50 tani tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 1000 dan ortganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Shu bilan birga, respublikamizning qator OTMLarida arab tili bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Xususan, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tili institutida, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida jami 4 mingdan ortiq talaba arab tilini alohida ta'lim yo'nalishi sifatida o'rganmoqdalar⁹¹.

Diniy munosabatlar. Misr va O'zbekiston diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik masalalari bo'yicha yuqori tajribaga ega mamlakat hisoblanadi. O'zbekistonda din jamiyatning axloqiy-intellektual va ma'naviy boyligining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi, insonparvar qadriyatlar manbai bo'lib, har tomonlama modernizatsiya yo'lidan ketayotgan jamiyat hayotini boyitadi⁹². Jumladan, O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi markazining bergan ma'lumotlariga qaraganda Respublikamizda bugungi kunda jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, shuningdek, O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko'rsatmoqda⁹³. Misr Arab Respublikasi ham o'z o'rnida nafaqat ko'pmillatli balki ko'p diniy konfessiyalarga hamda shu dinlar aro o'zaro murosa tajribasiga ega davlat hisoblanadi. Hozirgi davrda Misrda jami 111 mln dan ortiq aholi istiqomat qilayotgan bo'lsa, shulardan 90% i musulmon sunniy, tahminan 10% i

⁸⁸ Prezident bir guruh chet el fuqarolari va xorijdagi vatandoshlarni taqdirlash bo'yicha farmonni imzoladi. 28.08. 2020. —URL: <https://kun.uz/61916338>

⁸⁹ 9-3-2023 أبعاد وأفاق المحادثات المصرية - الأوزبكية. تعاون اقتصادي وتوافق سياسي. د. منى سليمان —URL: <https://www.siyassa.org/News>

⁹⁰ Al-Azhar universiteti bilan hamkorlik o'rnatiladi. —URL: <https://muslim.uz/uz/e/post/30705-al-azhar-universiteti-bilan-hamkorlik-o-rnatiladi>

⁹¹ O'zbekiston va Misr: Oliy ta'lim va ilm-fan sohalarida aloqalar mustahkamlanmoqda. —URL: <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-misr-olij-talim-va-ilm-fan-sohalarida-alloqalar-mustahkamlanmoqda>

⁹² Ш.Ёвкочев. Исламский фактор в политической системе современного Египта. Монография. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. -С.5

⁹³ O'zbekistonda diniy bag'rikenglik. 15.07.2020. —URL: <https://strategy.uz/index.php?news=1014&lang=uz>

ortodoks nasroniylari hisoblanadi⁹⁴. O'zbekiston ham Misr singari Islomni "siyosiy jihatdan qonuniylashtirish", diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga doir Misr tajribasini o'rganish mamlakatimiz uchun alohida qiziqish uyg'otmoqda⁹⁵. Bundan tashqari, Misr Arab Respublikasi, butun Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasi kabi, O'zbekistonning geosiyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa omillar sababli strategik manfaatlar doirasiga kiradi. Misr hamda boshqa arab davlatlari bilan xalqaro-siyosiy hamkorlikni rivojlantirish va o'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biridir.⁹⁶ Shu bilan bir qatorda zamonaviy davrga kelib Misrda diniy va dunyoviy muvozanatni ta'minlash masalasi xavfsizlikni ta'minlashning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi⁹⁷. Misr va O'zbekiston munosabatlarining rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi, drayver sohalardan biri diniy soha hisoblanib, ikki mamlakat aloqalarining rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ikki xalq orasidagi ushbu sohadagi hamkorlikning rivojlanishiga asosiy sabablardan biri umumiy din omilining mavjudligidir. Islom dinining Markaziy Osiyo mintaqasiga yoyilishi ortidan ushbu mintaqada yetishib chiqqan, Islom renessansi uchun o'zining munosib hissasini qo'shgan ulamolar ko'pchilikni tashkil etadi. Ahmad Al-Farg'oniy, Sayfiddin Qutz, Ahmad ibn Tulun kabi tarixiy shaxslar ikki mamlakat o'rtasidagi mushtarak aloqalarning rivojida muhim iz qoldirishgan. O'zbekiston va Misr o'rtasidagi diniy hamkorlik, nafaqat, mamlakatimiz mustaqiligidan keyingi yillarda, balki SSSR davrida ham ancha taraqqiy topgan edi. Mamlakatda barcha dinlarga nisbatan ko'plab cheklov hamda ta'qiblar mavjud bo'lganligiga qaramasdan, SSSR va Misr o'rtasidagi munosabatlar fonida diniy aloqalar haminqadar rivojlanib borgan. Xususan, diniy munosabatlar xalqaro munosabatlar sohasidagi Islomning roli SSSR ning Yaqin Sharqdagi Misr, Suriya, Livan, Liviya, Iroq kabi hamfikir davlatlari olib boradigan aloqalarida qo'l kelardi. Diniy bilimlar va arab tili grammatikasining tahsili bo'yicha hali-hanuz yetakchilikni qo'ldan boy bermagan Misr Arab Respublikasi ham diniy munosabatlarini SSSR bilan faol ravishda olib borgan. Ko'plab sovet talabalari diniy bilimlarni Al-Azhar Universitetida olgan bo'lishsa, Buxorodagi Mir Arab madrasasida misrlik talabalar tahsil olgan. 1943-yil tashkil etilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasi (ruscha САДУМ — "Духовное управление мусульман Средней Азии и Казахстана") butun Markaziy Osiyo davlatlaridagi diniy masalalar bo'yicha ishlarni amalga oshirgan. 1945-yil Buxoroda qayta ochilgan Mir Arab madrasasi hamda 1971-yil Toshkentda ochilgan Imom Buxoriy nomidagi Islom instituti SSSR bo'ylab

⁹⁴ Religion in Egypt. 12.09. 2022.. —URL: <https://www.state.gov/reports/2022-report-on-international-religious-freedom/egypt>

⁹⁵ Кадырова Г. Ислам во внешней политике Египта. Монография/. Министерство высшего образования, наука и инноваций РУз.-Т.: "EFFECT-D", 2023 С. 6-7.

⁹⁶ Ш.Ёвкочев. Исламский фактор в политической системе современного Египта. Монография. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008.-С.7

⁹⁷ Bo'ronov S., Azimov H. Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar: O'quv qo'llanma.– Т.: "EFFECT-D", 2023.– В. 130

diniy ta'lim berish borasidagi yetakchi muassasalar sanalgan⁹⁸. Diniy konferensiyalar, bag'rikenglik sammitlarida xalqaro formatlar doirasida misr va sovet musulmonlari ishtirok etishgan. Fikrimizga dalil sifatida esa, O'rta Osiyo va Qozog'iston Musulmonlar diniy boshqarmasining 1957-1982-yillardagi raisi Muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxonning xalqaro sammitlar ishtirokidagi hamkorliklari, diniy idoraning raisi muftiy sifatida arab davlatlari, jumladan, Misrga amalga oshirgan ishchi tashriflari, xalqaro hamkorlik maslalari borasida olib borgan ulkan yutuqlari hamda diniy boshqarmaning 1982-1989-yillardagi raisi Doktor Shamsiddinxon Boboxonovning ilmi va diniy faoliyati, uning aynan Qohirada tahsil olganligini keltiramiz. 60-yillarning birinchi yarmida misr-sovet musulmonlari o'rtasidagi munosabatlar kengayib bordi. SSSR talabalari Al-Azharga o'qishga yuborildilar. Ularning orasida keyinchalik O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining raisi Sh. Boboxonov ham bor edi⁹⁹.

Mustaqillik yillarida esa ilgari mavjud bo'lgan turli diniy to'siqlarning olib tashlanishi, xalqaro aloqalar bo'yicha erkinliklarga erishilinishi fonida, tabiiyki, ikki mamlakat o'rtasidagi diniy munosabatlar ham ancha rivojlandi. Jumladan, 1999-yil dekabrda Al-azharning Bosh Imomi Muhammad Said Tantoviy O'zbekistonga tashrif buyurib, turli qadamjolarini ziyorat qilib, Al-azhar majmuasi hamda O'zbekiston Musulmonlari idorasi o'rtasidagi hamkorlik memorandumlarini imzolagan¹⁰⁰.

2018-yil 10-oktabr kuni Al-azharning hozirgi kundagi Bosh Imomi Ahmad at-toyyib O'zbekistonga tashrif buyurib. Samarqand va Buxoro shaharlarini ziyorat qilgan. Tashrifi davomida Al-azhar shayxi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilinib, ikki tomonlama diniy munosabatlarning rivojiga muhim hissa qo'shgan¹⁰¹.

O'zbekiston tomonidan Musulmonlar idorasining 1997-2006-yillardagi raisi Abdurashid qori Bahromov 1999-yilda Misrda tashkil etilgan "XX asrda Islom" konferensiyasidagi ishtiroki davomidagi ushbu mamlakatga amalga oshirgan tashrifi¹⁰², 2006-2021-yillardagi raisi Usmonxon Alimovning 2019-yil 9-yanvar kuni Misrga amalga oshirgan tashriflari ikki tomonlama diniy aloqalarning mustahkamlanishi yo'lida ham muhim ahamiyat kasb etgan. tashrifi davomida mustahkamlanib borayotgan ikki tomonlama munosabatlarning rivojiga atroflicha to'xtalib, amalga oshirilayotgan diniy-ma'rifiy sohadagi ulkan islohotlar haqida

⁹⁸ Б.Бабаджанов. Среднеазиатское Духовное управление (САДУМ): предыстория и последствия его распада // Многомерные границы Центральной Азии. М., 1999, -С. 47–60

⁹⁹ Борисов А.Б. Роль ислама во внутренней и внешней политике Египта (XX век). —М: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1991. —С110-111.

¹⁰⁰ Абделхалим Т.Ф. Процессы становления и развития современных египетского-узбекских отношений. Дисс. на соискание ученой степени кан.пол.наук—С.51

¹⁰¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Миср Бош имоми, Ал-Азхар мажмуаси раҳбарини қабул қилди. 11.10.2018.—URL: <https://president.uz/uz/lists/view/2086>

¹⁰² Абделхалим Т.Ф. Процессы становления и развития современных египетского-узбекских отношений. Дисс. на соискание ученой степени кан.пол.наук—С.51

ma'lumotlar taqdim etildi. Shuningdek, O'zbekiston va Misr davlatlari o'rtasidagi diniy-ma'rifiy sohadagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi¹⁰³

2024-yil 12-dekabr kuni O'zbekiston Din ishlari bo'yicha qo'mitasi va Al-Azhar o'rtasidagi anglashuv memorandum imzolandi. Imzolangan anglashuv memorandumini diniy ta'lim olish istagidagi o'zbekistonlik yoshlarning Al-Azhar majmuasi va uning tarkibidagi o'quv muassasalariga qabul qilishni tartibga soladi¹⁰⁴.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ilm-fan ochog'i bo'lmish Movarounnahr hamda tamaddunlar beshigi bo'lmish Misr o'rtasidagi madaniy, ilmiy aloqalar ham avvaldan ham yuksak bo'lib kelgan va hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Misrning dunyoga mashhur "al-Azhar" majmuasi diniy bilimlarni berish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Xalqaro Islom akademiyasi hamda ushbu nufuzli ilm dargohi o'rtasidagi ilmiy hamkorlik ham Misr va O'zbekistonning gumanitar sohadagi yutuqlaridan darak beradi.

Misr va O'zbekiston o'rtasidagi boy madaniy aloqalar o'rta asrlardan to hozirgi kunga qadar uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. O'rtada mustamlakachilik, turli istibdod davrlari mobaynida ham ikki xalq orasidagi o'zaro madaniy munosabatlar o'z rivojlanish bosqichlaridan og'ishmay davom etgan.

Misr va O'zbekiston diniy bag'rikenglik sohalarida ko'pgina tajribaga hamda ulkan salohiyatga ega davlatlar hisoblanib, o'z hududlarida turli millatlar va diniy konfessiyalar bo'lishiga qaramay, ular o'rtasidagi muvozanatni ushlay bilganliklari bilan ajralib turishadi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy hamda diniy sohadagi munosabatlar ikki tomonlama munosabatlarga yana-da joziba qo'shuvchi asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy jihatdan ancha yuqori tajribaga ega bo'lgan, OTM lari jahonning yetakchi o'rinlarida turuvchi O'zbekiston bilan olib boriladigan ilmiy-gumanitar sohadagi hamkorlikdan Misr Arab Respublikasi har tomonlama manfaatdor hisoblanadi.

O'z o'rnida diniy bilimlar berish bo'yicha yetakchi ta'lim dargohiga ega Misr bilan diniy va ilmiy OTM lar kesimida olib boriladigan muhim hamkorlikni yo'lga qo'yish ortidan O'zbekiston ilmiy-gumanitar jihatdan tajriba almashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ш.Ёвкочев. Исламский фактор в политической системе современного Египта. Монография. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008.-231 с.

¹⁰³ Muftiy hazrat al-Azhar shayxi bilan uchrashdi. 9.01.2019. –URL: <https://muslim.uz/uz/e/post/28662-muftiy-hazrat-al-azhar-shayxi-bilan-uchrashdi>

¹⁰⁴ Ўзбекистон Дин ишлари бўйича қўмитаси ва Мисрнинг Ал-Азхар мажмуаси ўртасида англашув меморандуми имзоланди. 12.12.2024. –URL: <https://dunyo.info/uzk/sotrudnichestvo/%D0%8Ezbekiston-din-ishlari-b%D1%9Euyicha-%D2%9B%D1%9Emitasi-va-misrning-al-az%D2%B3ar-mazhmuasi-%D1%9Ertasida-anglashuv-memorandumi-imzolandi>

2. Кадырова Г. Ислам во внешней политике Египта. Монография/. Министерство высшего образования, наука и инноваций РУз.-Т.: "EFFECT-D", 2023. –194 с.
3. Борисов А.Б. Роль ислама во внутренней и внешней политике Египта (XX век). —М: Наука. Главная редакция восточной литературы, 1991. – 254 с.
4. Б.Бабаджанов. Среднеазиатское Духовное управление (САДУМ): предыстория и последствия его распада // Многомерные границы Центральной Азии. М., 1999, -С. 47–60
5. Абделхалим Т.Ф. Процессы становления и развития современных египетско-узбекских отношений. Дисс. на соискание ученой степени кан.пол.наук –151 с.
6. Ал-Бухари М. Гафуров С. Арабская Республика Египет. Учебное пособие (Под ред. акад. Н. Ибрагимов). –Т.:ТашГИВ, 2002. –112 с.
7. Во‘ronov S., Azimov H. Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolar: O‘quv qo‘llanma.– Т.: “EFFECT-D”, 2023. – 342 b.
8. أ.د.محمد السيد سليم، د. إبراهيم عرفات، أ.د.نعمة الله إبراهيموف، د. صالح إنعاموف. أوزبكستان. الدولة والقائد. -ق، ١٩٩٨. ص١١٨
9. Xalq so‘zi. –2007.– 19–apr
10. Al-Azhar universiteti bilan hamkorlik o‘rnatiladi. —URL: <https://muslim.uz/uz/e/post/30705-al-azhar-universiteti-bilan-hamkorlik-o-rnatiladi>
11. Ўзбекистон Дин ишлари бўйича қўмитаси ва Мисрнинг Ал-Азҳар мажмуаси ўртасида англашув меморандуми имзоланди. 12.12.2024. –URL: <https://dunyo.info/uzk/sotrudnichestvo/%D0%8Ezbekiston-din-ishlari-b%D1%9Eyicha-%D2%9B%D1%9Emitasi-va-misrning-al-az%D2%B3ar-mazhmuasi-%D1%9Ertasida-anglashuv-memorandumi-imzolandi>
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.02.1995 yildagi 39-son. —URL: <https://lex.uz/docs/-1654670>
13. Ўзбекистон Дин ишлари бўйича қўмитаси ва Мисрнинг Ал-Азҳар мажмуаси ўртасида англашув меморандуми имзоланди. 12.12.2024. –URL: <https://dunyo.info/uzk/sotrudnichestvo/%D0%8Ezbekiston-din-ishlari-b%D1%9Eyicha-%D2%9B%D1%9Emitasi-va-misrning-al-az%D2%B3ar-mazhmuasi-%D1%9Ertasida-anglashuv-memorandumi-imzolandi>
14. Muftiy hazrat al-Azhar shayxi bilan uchrashdi. 9.01.2019. –URL: <https://muslim.uz/uz/e/post/28662-muftiy-hazrat-al-azhar-shayxi-bilan-uchrashdi>
15. Ўзбекистон Республикаси Президенти Миср Бош имоми, Ал-Азҳар мажмуаси раҳбарини қабул қилди. 11.10.2018. –URL: <https://president.uz/uz/lists/view/2086>
16. Religion in Egypt. 12.09. 2022. . —URL: <https://www.state.gov/reports/2022-report-on-international-religious-freedom/egypt>
17. O‘zbekiston va Misr: Oliy ta’lim va ilm-fan sohalarida aloqalar mustahkamlanmoqda. —URL: <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-misr-olij-talim-va-ilm-fan-sohalarida-alloqalar-mustahkamlanmoqda>

18. Prezident bir guruh chet el fuqarolari va xorijdagi vatandoshlarni taqdirlash bo'yicha farmonni imzoladi. 28.08. 2020. —URL: <https://kun.uz/61916338>

19. شيخ الأزهر: مستعدون لإنشاء مركز لتعليم اللغة العربية في أوزبكستان - اليوم السابع. 15.10.2024. —URL: <https://www.youm7.com/story/2024/10/15/>